

**BESHTA TASHABBUS VA UNING YUKSAK MA'NAVİY
MADANIYATNI TA'MINLASHDAGI O'RNI**

Rashidova Zulxumor

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universititi, Fizika-
matematika fakultetining, matematika va informatika ta'lim yo'nalishining
103- guruh talabasi*

Saidahmatova Sadoqat Usmonovna

O'qituvchi Ijtimoiy fanlar kafedراسi falsafa fani o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda olib borilayotgan muhim islohotlar va ularning aholi farovonligida tutgan o'rni, "Besh muhim tashabbus" va uning yoshlar o'rtasidagi ijrosi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

***Аннўтациа.** В этой статье рассматриваются важные реформы, проводимые в нашей стране и информация об их роли в благополучии населения, „Пять важных инициатив" и ее реализации среди молодежи.*

***Annotation.** In this article, important reforms carried out in our country and information about their role in the well-being of the population, „Five important initiatives" and its implementation among young people.*

***Kalit so'zlar:** Besh muhim tashabbus, islohot, xotin-qizlar bandligi, ma'naviy va ma'rifiy sohalar, internet hurujlari, yoshlar ma'naviyati.*

***Ключевие слова:** Пят важных инициатив:реформа, женская занятость, духовная и образовательные области, интернет-атаки, молодежная духовность.*

***Keywords:** Five important initiatives, reform, women's employment, spiritual and educational fields, internet attacks, youth spirituality.*

Xabaringiz bor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san’at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash vazifalarini o‘z ichiga oladi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edilar. Bu besh tashabbus quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, yosh avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashga qaratilgan

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida komppyyuterdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ana shu ezgu g‘oya Prezidentning Sirdaryo viloyatida ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy

qilish masalalarida keng ishlar amalga oshirilmoqda. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi muhim qilib qo'yildi va yurtimiz rahbari tomonidan ko'plab yangiliklar va islohotlar amalga oshirildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga ma'sul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham katta e'tibor qaratildi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiya hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi. Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi va ular amalga oshirilmoqda. Shuningdek ushbu tashabbuslarning negizida yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratilgan. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" Tanloviga 2017-2019-yillar davomida 2 min. 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 8 nafar tanlov g'oliblari bo'lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg'asi "Spark" avtomashinasi sovrindori bo'ganligi ham yoshlarimizni kitobxonlik ruhiga yana qaytganini yorqin isbotidir. Tadbirda

“Yosh kitobxon” tanlovining 2020-yilgi saralash asoschilari 23-25-dekabr kunlari barcha tuman (shahar larda o‘tkazilishi to‘g‘risida ham ma‘lumot berildi va bu jarayon .Online tarzda amalga oshirilishini aytib o‘tildi. Yana bir muhim tashabbuslardan biri xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutilgan beshinchi tashabbus doirasida o‘quvchi-qizlarning jamiyatdagi faolligi oshirish, ma‘naviyatini yana-da yuksaltirish, iqtidorli qizlar safini kengaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash. Maqsadida jamoatchilik asosida ta‘lim muassasalarida “Qizlarjon” klublari tashkil etildi va unda 377 762 nafar o‘quvchi-qizlar a‘zo bo‘ldi. Klub yetakchilari tomonidan “Tengdosh-tengdoshga” Shiori ostida olib borilayotgan targ‘ibot vatushuntirish ishlariga alohida e‘tibor qaratilib, har bir qiz ilg‘or o‘quvchilar safida yurishga, o‘qishda jamoat ishlarida faol bo‘lishga intilmoqda.

Bundan tashqari, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan 2019-yil oktyabr-dekabr oylarida “5 tashabbus Maktabda” festivali tashkil etilib, festivalga 2,6 mln. Nafar o‘quvchilar jalb etildi. Mazkur festivalda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ta‘lim muassasalarga sport anjomlari, musiqa asbob- uskunalari topshirildi. Shu o‘rinda alohida e‘tirof etish joizki, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni ta‘lim muassasalari va o‘quvchi yoshlar orasida keng targ‘ib qilishda mahalliy hokimliklar tomonidan ham 45,1 mlrd. so‘m homiylik mablag‘lari ajratildi. Hozirda beshta muhim tashabbus doirasida, yurtimiz umumta‘lim maktablarida tashkil etilgan turli to‘garaklar namunali faoliyat olib borish bilan bir qatorda, o‘zining natijasini bermoqda. Jumladan, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi ham to‘rtinchi tashabbus – aholi, ayniqsa, yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish masalalari bo‘yicha ma‘sul tashkilot sifatida jarayonda faol ishtirokchiga aylanadi. Markazda quyidagi yo‘nalishlarda amaliy ishlar olib borish yo‘lga qo‘yildi:

1) Tegishli tashkilotlar mas‘ulligi va hamkorligida 1 oy muddatda mazmun va mohiyat nuqtayi nazaridan milliy ruhimiz, shonli tariximiz va vatanparvar

ajdodlarimizga munosib bo'lgan harbiy qasamyodning yangi matni bo'yicha taklif tayyorlash;

2) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ulligida Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda an'anaviy tarzda bir yilda ikki marotaba, 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni va 2-sentabr-bilimlar kunida mamlakatimiz bo'ylab o'tkaziladigan “Qadrdon maktabimga kitob sovg'a qilaman” shiori ostida aksiya tashkil qilish;

3) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul tashkilot sifatida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda, bir yilda bir martta 9-fevral – buyuk ajdodimiz Alisher Navoiyning tavallud kunida e'lon qilinadigan “Bu yilda o'qilishi zarur bo'lgan 100 ta kitob” ro'yxatini tuzib chiqish, ushbu kitoblarning yil davomida televideniya va radioefirlarda o'qib borilishi, el tanigan ziyolilar orqali barcha turdagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng tashviqotini tashkil qilish;

4) Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mas'ulligida Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, VazirlarMahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlikda jahon va o'zbek adabiyoti, tariximiz va qadriyatlarimiz bilan bog'liq sara asarlar, shuningdek, islom dini tarixi, islom dinining asl mazmun-mohiyati va yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqida hikoya qiluvchi ixchamlashtirilgan matnlarni chop etish va audiokitoblar tayyorlashni ta'minlash;

5) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul tashkilot sifatida Yoshlar ittifoqi va Madaniyat Vazirligi bilan birgalikda yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda kitobxonlikka keng jalb etishga qaratilgan ta'sirchan, tizimli, maqsadli va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda ham mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, zarur chora-tadbirlar belgilanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. O‘lis va chekka qishloqlarda engil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun‘iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun er ajratish zarurligi ta‘kidlandi. Bunday tadbirkorlarga o‘zmilliybank tomonidan “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratildi. Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat‘iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas‘ulligini oshirmoqda. oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o‘zaro qo‘llab quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga undamoqda.

Xulosa qilib aytganda ushbu tashabbuslar yoshlarni yuksalishiga va yangi marralarni zabt etishiga yanada katta yo‘l va imkoniyatlar ochib beradi. Eng muhimi yoshlarmiz bu tashabbuslarni anglagan holda, ulardan unumli foydalanib, yurtimiz ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shishsa nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan beshta ustvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”.-T.: O‘zbekiston 2017.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. -T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Yoshlar tarbiyasida besh tashabbus. -T.: O‘zbekiston, 2018
4. Ortiqov N.O., Jo‘rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi O‘qituvchi”,1989.
5. Ochilov M.”Muallim – qalb me‘mori” T.:”O‘qituvchi” 2001